CHET TILI O‘RGANISHDA INTERFERENSIYANING IJOBIY VA SALBIY KO‘RINISHLARI

Sh.X.Ismoilova
FarDU tayanch doktaranti

Interferentsiya atamasi dastlab fizika fanida qo‘llangan bo‘lib, to‘lqinlarning to‘qnashuvi natijasida tebranish amplitudasining kuchayishi yoki susayishini bildirgan. Interferentsiya atamasi ilk bor XIX asrda yosh grammatikachilar oqimi namoyondalari bo‘lmish Praga tilshunoslari tomonidan qo‘llangan bo‘lishiga qaramay, F.Luabining ta’kidlashicha, U.Vaynrayxning “Til aloqalari” nomli kitobi nashrdan chiqqandan so‘nggina, ya’ni XX asrdan keng ishlatila boshlandi. Praga lingvistik maktabi a’zolari jamiyatda ona tilining o‘rniga alohida e’tibor qaratib, tilni o‘rganish jarayonida o‘zga tilni tezda o‘rganishga to‘sqinlik qiladigan turli hodisalarni aniqlaganlar. Ularning fikricha, interferentsiya hodisasi bu ikkinchi tilni mukammal bilmaydigan bilingv, ya’ni ikki til sohibi bo‘lgan o‘quvchilar nutqidagi til me’yorlaridan chekinish holatidir.

Transpozitsiya tushunchasi esa ijobiy ta’sir, ijobiy ko‘chish, yordamga kelish, ko‘maklashish, ijobiy natijaga olib keluvchi bilim, ko‘nikma va malakaning ko‘chishi ma’nolarida talqin etiladi. Transpozitsiya hodisasini, masalan, sifatlarning daraja ko‘rsatkichlarida kuzatish mumkin: o‘zbek tilida: keng ─ kengroq ─ juda keng, rus tilida: shirokiy – shire - ochenь shirokiy, ingliz tilida: wide ─ wider ─ the widest kabi. Mazkur tillardagi sifat darajalarining yasalishi, qo‘llanishidagi o‘xshashligi ushbu tillarni o‘rganuvchilarga, albatta, ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘zbek tilida ingliz tilidagi [ŋ] tovushiga o‘xshash burun tovush mavjudligi sababli (ingliz tilidagi morning, evening, everything o‘zbek tilidagi so‘nggi, dengiz, ko‘ngil, singil, tong) shu tovush ishtirokidagi so‘zlarni o‘rganish rus o‘quvchisiga qaraganda o‘zbek o‘quvchisida osonroq kechadi. Shuningdek, ingliz tilida otlarning ko‘plik shakli -s qo‘shimchasi bilan hosil qilinishi o‘zbek tilidagi -lar qo‘shimchasiga mutanosib kelishi ham o‘quvchilarning o‘zlashtirishida qiyinchilikni yuzaga keltirmaydi. Bu kabi misollar chet tilini o‘rganishda ona tili imkoniyatlaridan samarali foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi.

Interferentsiya hodisasi aslida sotsiolingvistikaning obyekti bo‘lib, u pedagogik, psixologik, lingvistik va metodik jihatdan ham o‘rganiladi. Lingvistik nuqtai nazardan interferentsiya ona tili va xorijiy tilning o‘zlashtirish darajasini aks ettiruvchi til kompetentsiyalari, sotsiologik jihatdan ijtimoiy madaniyatning bir qismi hisoblanuvchi ikki tillilik, bilingvallik hodisalari, psixologik jihatdan o‘quvchida alohida psixik jarayonlarning rivojlanishiga ta’sir etishi, pedagogik ta’limotda esa ikki yoki ko‘p tillilik muhitida o‘quv jarayonini tashkil etish masalalari bilan bog‘liq holda, metodik jihatdan esa interferentsiya oqibatida yuzaga keladigan xatolar sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, ko‘p tillilik muhitida interferentiv kompetentsiyani shakllantirish interferentsiya hodisasining turli jihatlari bilan tanish bo‘lishni taqozo etadi. Interferentsiya hodisasi asosan lingvistikaga aloqador masala bo‘lganiligi sababli, avvalo, uning lingvistik jihatlarini ko‘rib chiqamiz.

Interferentsiya nazariyasi lingvistik jihatdan J.Bagana, T.Tsapko, V.Vinogradov, O‘.Yusupov, M.Djusupov va boshqalar tomonidan keng o‘rganilgan hamda turlicha ta’riflangan bo‘lsa-da, ko‘p tillilik muhitida interferentsiyaga aloqador muammolar hali to‘liq hal etilmagan.

V.Vinogradov fikriga ko‘ra, interferentsiya o‘zaro aloqada bo‘layotgan bir yoki har bir til me’yorlaridan chekinish bo‘lib, u asosan ikki tilli o‘quvchilarning nutqida namoyon bo‘ladi. Xuddi shunday holat mamlakatimizda yashovchi va kamida ikki tilni biluvchi turli millatlar tomonidan yana bir chet tilni o‘rganish jarayonida ko‘p kuzatiladi. J.Bagana fikricha esa, interferentsiya natijasida so‘zlovchi tafakkurida xorijiy va ona tili o‘rtasidagi farq qiluvchi belgilarning qorishmasidan hosil bo‘lgan qandaydir uchinchi «tizim» hosil bo‘ladi. T.Tsapkotillarni egallashda

eng asosiy va katta qiyinchilik o‘quvchining til tajribasidagi birinchi nuqta - uning ona tili interferentsiyasi orqali sodir bo‘ladi. Ushbu holda ona tili va birinchi xorijiy til o‘rtasidagi tafovutlar kuchli bo‘lsa, ya’ni ushbu tillar ham genetik, ham morfologik tuzilish jihatdan turli guruhlarga mansub bo‘lsa, u holda interferentsiyaning ta’siri kuchli bo‘ladi. Agar ushbu tillar qaysidir jihatiga ko‘ra bir-biriga yaqin yoki qardosh bo‘lsa, u holda interferentsiyaning ta’siri kuchsiz bo‘ladi. Ikkinchi xorijiy tilni egallashda esa o‘quvchilarga yuqorida qayd etilgan universaliyalari birinchi xorijiy til tajribasi orqali egallangan ko‘nikma-malakalarni har qanday interferentiv ta’sirni tez bartaraf qilishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Bagana J., Xapilina Ye. V. Kontaktnaya lingvistika. – Belgorod: Izd-vo BelGU, 2007. – S. 48. − 138 s.
2. Ignatova M.N. Osnovnыe printsipы preodoleniya grammaticheskoy interferentsii v protsesse soizucheniya neskolьkix yazыkov na osnove ratsionalьnogo podxoda // Prepodavatelь XXI vek. – Moskva, 2014. − № 4. − S.158-161.
3. Ismoilova, S. (2023). CHET TILI O’RGANISHDA KOMUNIKATIV HAMDA INTERFERENTIV KOMPETENSIYALARNING AHAMIYATI. *Interpretation and researches*, *1*(14).
4. Jalolov J.J. Interferentsiya v metodike obucheniya nerodnomu yazыku // “O‘zbekistonda xorijiy tillar” ilmiy-metodik elektron jurnal. – Toshkent, 2017. – №.5. − B.89-93. Elektron resurs: http:// www.Conference.Fledu.uz. Murojaat qilingan sana: 05.03.2018.
5. Jumadilova G.A., Saylaubekova D.S. Interferentsiya kak aktualьnaya problema perevoda v mejkulьturnoy kommunikatsii. – S. 94. Elektron resurs: http://www.journals.altspu.ru/vestnik/article/download/162/ 159/ Murojaat qilingan sana: 18.11.2014.
6. Zokirov M.T., Zokirova S.M. Kontrastiv lingvistikada transferentsiya va interferentsiya hodisalari xususida // Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. – Xiva, 2018. − B. 74.

WORDLY KNOWLEDGE